

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING OTA-ONALAR BILAN
HAMKORLIK TIZIMINING O'ZIGA XOSLIGI.**

Esonqulova Gulsanam Abdullayevna

Jizzax shahar 37-DMTTda tarbiyachi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik tizimining o'ziga xosligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: barkamol inson tarbiyasi, baxt saodati, suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, rekonstruktsiya, modernizatsiya, ezgu maqsad, tarbiyachi-metodistning rejasi, xushmuomalalik.

Bolani hamma narsa tarbiyalaydi: odamlar, narsalar, hodisalar, lekin eng avvalo va eng uzoq - odamlar.

Ular orasida ota-onalar va o'qituvchilar
birinchi o'rinda turadi.

A. S. Makarenko

Barkamol inson tarbiyasi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolardan hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodga qanday ta'lism – tarbiya berishimiz faqat oilaning baxt saodati va farovonligi uchun emas, balki butun jamiyatimiz taraqqiyotiga bog'liq. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Oila va maktabgacha ta'lism tashkiloti kelajagimiz negizida turadigan ikkita davlat institutidir.

Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir tajribalaridagi ijobjiy ishlarni ko'ribgina qolmay, balki uni qo'llab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida xali xal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridaq ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga raxbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi. Ota-onalar bilan ishslash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruxiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshiklar kuni, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish,

shuningdek, bu tadbirlarni o'tkazish vaqtleri va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari va oila o'rtaida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalilanildi:

- ⊕ suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni maktabgacha ta'lif tashkilotiga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalananish.

- ⊕ bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad oila sharoiti, bolaning oiladagi hulqi qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish,

- ⊕ ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarni o'rganib, ommalashtirishdir.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gall borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.



Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendor rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi – pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida ko'proq nimalarga e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lif ta'lif tashkilotlarida ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan har bir munozaralar bolalarni

maktabning ilk bosqichiga qadam qo'yishlarini silliqlik bilan o'tishida yordam beradi hamda sog'lom bola va mustahkam sog'lom muhit sharoitini yaratishga imkon beradi. Treninglar maktabgacha ta'lim tashkilot uslubchisi, maktabgacha tayyorlov gurux tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari, boshlang'ich sinif o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Raximova C.C. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish. Ped.fan. bo'yicha falsafa dok.diss.avtoreferati.T.:2020, 65b
2. V.Belya "Maktabgacha ta'lim tashkilotda pedagogik kengash". -M.: 2009y, 232 b.
3. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: «Istiqlol», 2006y, 290 b..
4. Abdullayeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008y, 310 b.
5. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak tarbiyachining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014y, 88 b